

URUG'LARNING UNUVCHANLIGINI OSHIRISH VA NIHOLLARNI SOG'LOM O'SISHINI BOSHQARISHDA BIOSTIMULYATORNING AHAMIYATI (DAG-1 MISOLIDA)

Urganch Davlat Universiteti "Tabiiy va
qishloq xo'jaligi fanlari" fakulteti
"Biotexnologiya" kafedrası o'qituvchisi
Shixnazarov Raximboy Rashidbek
o'g'li

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda glitserizin va salitsil kislotalari asosida yaratilgan DAG-1 biostimulyatorining g'oz urug'larining unuvchanligi va nihollarining o'sishiga ta'siri o'rganildi. 10^{-7} konsentratsiyadagi DAG-1 preparati bilan ishlov berilgan urug'larning 1 haftalik nihollarining quruq massasi nazorat guruhiga nisbatan 14%ga yuqori bo'ldi. Tadqiqot natijalari biostimulyatorlardan foydalanish g'ozaning dastlabki o'sish bosqichlarini faollashtirishi mumkinligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlari: g'oz, urug', preparat, nihol

Kirish

G'oz O'zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan texnik ekinlardan biridir. Urug'larning unuvchanligi va nihollarining sog'lom o'sishi agrotexnik jarayonlarda muhim omillardan sanaladi. So'nggi yillarda biostimulyatorlardan foydalanish orqali o'simliklarning dastlabki rivojlanishini rag'batlantirish imkoniyati kengaymoqda. Ushbu maqolada DAG-1 preparatining g'oz nihollarining o'sishiga ta'siri baholandi.

Materiallar va uslublar

Tajriba sharoitida g'oz urug'lari 10^{-7} konsentratsiyadagi DAG-1 biostimulyatori eritmasi bilan ishlov berildi. Tajriba 2 ta guruhda o'tkazildi:

- 1-guruh (tajriba): DAG-1 bilan ishlangan urug'lar
- 2-guruh (nazorat): oddiy suvda ishlangan urug'lar

Urug'lar bir xil sharoitda unib chiqarildi. 1 haftalik nihollar olinib, ularning quruq massasi aniqlandi.

Natijalar va muhokama

Tajriba natijalariga ko'ra, DAG-1 preparati bilan ishlov berilgan nihollarning quruq massasi nazorat guruhiga nisbatan 14%ga ko'proq bo'ldi. Bu esa DAG-1 o'simlikning dastlabki metabolik faolligini rag'batlantirishi, oziq moddalar almashinuvini yaxshilashi mumkinligini ko'rsatadi. Biostimulyatorlarning bunday ta'siri g'o'za ekinining agrotexnik samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, DAG-1 biostimulyatoridan foydalanish g'o'za urug'larining unuvchanligini va nihollarining dastlabki o'sishini ijobiy ta'sirga ega. Keyingi tadqiqotlar DAG-1 ning boshqa konsentratsiyalari va tuproq sharoitlaridagi samaradorligini o'rganishga yo'naltirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov, B. (2021). Biostimulyatorlarning o'simlik fiziologiyasiga ta'siri. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Karimov, A.A., & Jalolov, S.X. (2020). G'o'za agrotexnologiyasi asoslari. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti.
3. Raskin, I., & Turnbull, D. (1991). Salicylic acid: a new plant hormone. *Plant Physiology*, 99(3), 799–803.
4. Hayat, Q., et al. (2010). Effect of exogenous salicylic acid under changing environment: A review. *Environmental and Experimental Botany*, 68(1), 14–25.
5. GOST 12038-84. (1985). Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larining unuvchanligini aniqlash usullari. Moskva: Standart.
6. Wang, L.J., et al. (2007). Role of salicylic acid in plant abiotic stress. *Zhejiang University Science B*, 8(6), 438–446.
7. Gulomov, D. (2023). Biologik faol moddalarning o'simlik rivojiga ta'siri. – Samarqand: Ipak yo'li nashriyoti